

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QITUVCHILARNING
KASBIY KOMPETENSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

Olimov Temir Xasanovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Ruziyeva Jasmin Alisherovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiya ko'nikmalarini shakllantirishning ta'limiy faoliyatlar, kompetensiyaviy yondashuv va uning ahamiyatli jihatlari, soha va tayanch kompetensiyalar,o'qituvchining pedagogik qobiliyatlar va uning ta'limiy kompetentlik jarayonlardagi o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy, kompetentlik, qobiliyat, bilim, malaka, ko'nikma, pedagogik qobiliyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается профессионально компетентностный подход обучающихся в дошкольных образовательных организациях и его важные аспекты, роль и значение сферы и основных процессов.

Ключевые слова: компетентность, профессиональный, компетентность, способность, знание, классификация, навык, педагогическая ценность.

Annotation: This article examines the professional competence approach of students in preschool educational organizations and its important aspects, the role and significance of the sphere and main processes.

Keywords: competence, professional, competence, ability, knowledge, competence, skill, pedagogical ability.

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyatga tatbiq etildi, umumiyo'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi. Ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuv g'oyasi yaqinda dunyo pedagogika fanida faol rivojlanmoqda. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning dastlabki shartlari zamonaviy dunyoning o'zgargan voqeligi va kasbiy faoliyatning funksional mazmuni bilan moslashuvchan ravishda bog'langan mutaxassislarni tayyorlash uchun paydo bo'lgan ijtimoiy tartib etadi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Ilklam" da o'quv dasturi asosida ta'limiy faoliyatlar olib boriladi. Davlat o'quv dasturi esa kompetensiyaviy yondashuvga

"O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING YANGI UFQLARI"

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

asoslanganligidan barchamizning xabarimiz bor. Maktabgacha ta'linda barcha faoliyat turlari bola kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Kompetensiya inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir. Bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmui sanaladi. Kompetensiya o'z bilimlarini muntazam boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, yaratuvchilik, ixtirochilik va ularni amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi esa, bola shaxsining muntazam o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini muayyan vaziyatda safarbar qilishi va o'rini qo'llay olishi, o'z maqsadiga erisha olishi va rivojlanishning har bir bosqichida o'zining yoshiga mos ravishda vazifalarni hal qila olishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bolalarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashish demakdir. Bolalarning bilishi bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, tengdoshlari, kattalar, umuman insonlar bilan muloqot qilish, "Men" konsepsiyasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv 5 ta soha kompetensiyasi va tayanch kompetensiyalarini o'z ichiga oladi. 5 ta soha kompetensiyasiga quyidagilar:

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" sohasi kompetensiyalari

- "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari
- "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari
- "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari
- "Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari mavjud.

Xulosa:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiya ko'nikmalarini shakllantirishi va bolalarga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat kompetensiyaviy yondashuvning muhimligi, balki pedagogning pedagogik faoliyatga to'laqonli kasbiy tayyorligi ham muhim sanaladi. Ya'ni pedagogning faoliyatdagi mahorati, salohiyati, boladagi bo'shlqlarni, uning yutuqlarini ko'ra olish hamda perseptiv qobiliyatining mavjudligi. Pedagog yosh avlodni tarbiyalashda yuqori malakali, mahoratli bo'lishi talab etiladi. Pedagog ta'limiy jarayonni muvaffaqiyatli kechishi uchun beradigan ma'lumoti haqida chuqur bilimga ega bo'lishi, bola uchun tushunarli tilda bo'lishi, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olingan bo'lishi, bolani ta'limga qiziqtira olishi, zamonaviy texnologiyalardan o'rini va maqsadli foydalana olishi, ta'lim sifatiga diqqat qaratmog'i lozim. Bundan anglash mumkinki, bugungi kun talabi pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta'limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko'tarish, kuchli salohiyatli, tezkorlik bilan samarali bilim olishni ta'minlashdir.

**“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS: INSON, FAN VA IQTISODIYOTNING
YANGI UFQLARI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiysi

10-Mart, 2025-yil

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi"- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son farmoni.
2. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665
3. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
4. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
5. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
6. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
8. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO 'LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(7).
9. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.